



## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT SHAHRI HOKIMINING QARORI

2024-yil 16-oktabr

731-14-0-Q/24

Toshkent shahar hokimligi

### **Toshkent shahrida transport vositalarining pulli to‘xtab turish joylari faoliyatini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6-, 25-moddalari, “Yo‘l harakati to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-iyuldagi “Toshkent shahrida davlat va tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida o‘zaro manfaatli hamkorlik asosida investitsiya loyihalarini amalga oshirish va shahar infratuzilmasini yaxshilash bo‘yicha huquqiy eksperimentni o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-236-son qaroriga muvofiq,

### **Q A R O R   Q I L A M A N :**

1. Toshkent shahar hokimligi va “Toshkent Invest kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyatining (keyingi o‘rinlarda – Kompaniya) Toshkent shahrida transport vositalarining pulli to‘xtab turish joylari faoliyatini yanada takomillashtirish hamda ularni bosqichma-bosqich tashkil etish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

2. Quyidagilar:

Toshkent shahrida transport vositalarining pulli to‘xtab turish joylarini tashkil etish tartibi 1-ilovaga muvofiq;

Toshkent shahrida transport vositalarining pulli to‘xtab turish joylaridan foydalanganlik uchun to‘lovlar miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, Toshkent shahrida transport vositalarining pulli to‘xtab turish joylaridan foydalanganlik uchun to‘lovlar miqdorlari O‘zbekiston Respublikasi “Yo‘l harakati to‘g‘risida”gi Qonunining 25-moddasiga muvofiq pulli to‘xtab turish joylarining egalari pulli to‘xtab turish joylaridan foydalanganlik uchun to‘lov miqdorini O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishilgan holda

belgilanadigan cheklangan miqdorlardan yuqori bo‘lmasligi kerakligi belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Kompaniya 2025-yil 1-yavarga qadar Toshkent shahri hokimligi huzuridagi Toshkent shahrini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan “Pulli to‘xtab turish joylari” yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimini foydalanishga topshirishni va unga tashkil etiladigan transport vositalarining pulli to‘xtab turish joylari uskunalarini ulashga tayyorligini ta’minlasin.

4. Toshkent shahar hokimligi matbuot xizmati (G.Kasimova) Kompaniya bilan birgalikda:

mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishi va [www.toshkent.uz](http://www.toshkent.uz) veb-saytiga joylashtirilishi;

mazkur qaror, uning maqsadi va undagi vazifalar haqida jamoatchilikni keng xabardor etib borishni ta’minlasin.

5. Ushbu qaror e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Toshkent shahar hokimining o‘rinbosari Sh.Raxmonov zimmasiga yuklansin.

**Toshkent shahar hokimi**



**Sh.Umurzakov**

Toshkent shahar hokimining  
2024-yil 16-oktabrdagi  
731-14-0-Q/24-son qaroriga  
1-ilova

## **Toshkent shahrida transport vositalarining pulli to‘xtab turish joylarini tashkil etish TARTIBI**

### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Tartib Toshkent shahri hududida Toshkent shahar va tumanlar hokimliklari hamda ularning tarkibidagi tashkilotlar tomonidan transport vositalarining pulli to‘xtab turish joylarini (keyingi o‘rinlarda – Parking) tashkil etish va ulardan foydalanish qoidalarini belgilaydi.

2. Mazkur Tartibda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

**Parking imtiyozli ruxsatnomasi (keyingi o‘rinlarda – imtiyozli ruxsatnoma)** – mazkur Tartib 12-bandining uchinchi-to‘rtinchi xatboshilarida nazarda tutilgan shaxslarga Parkingdan imtiyozli foydalanish huquqiga beriladigan, “Pulli to‘xtab turish joylari” yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi (keyingi o‘rinlarda – “Pulli to‘xtab turish joylari” AAT) reyestriga kiritilgan ruxsatnoma;

**to‘lov** – Parkingdan foydalanganlik uchun to‘lov;

**“Pulli to‘xtab turish joylari” AAT operatori** – “Toshkent Invest kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda – Kompaniya) yoki uning shu‘ba jamiyati;

**Texnik operator** – Parking tashkil etish va ulardan foydalanish huquqiga ega bo‘lgan shaxs;

**foydalanuvchi** – transport vositasini Parkingga joylashtiradigan shaxs.

3. Parking tashkil etish loyihasi O‘zbekiston Respublikasining rezidenti yoki norezidenti bo‘lgan jismoniy va yuridik shaxslarni (keyingi o‘rinlarda – Investor) jalb qilgan holda amalga oshiriladi.

### **2-bob. Investarlarni jalb qilgan holda Parking tashkil etish**

4. Parking tashkil etish loyihasini amalga oshirish uchun yer uchastkasiga egalik qiluvchi Toshkent shahar va tumanlar hokimliklari hamda ularning

tarkibidagi tashkilotlar, Investorlar va boshqa shaxslar (keyingi o‘rinlarda – Yer egasi) Kompaniyaga tashabbus bilan murojaat qilishi mumkin.

Kompaniya manfaatdor tashkilotlar bilan birga ushbu murojaatni 20 kun muddatda o‘rganib chiqadi.

Kompaniya o‘rganish natijalariga ko‘ra Parking hududi chegarasini tasdiqlash to‘g‘risidagi Toshkent shahar hokimi qarorlari loyihalarini ishlab chiqib, o‘rnatilgan tartibda kiritadi.

**5.** Kompaniyaning taklifiga asosan, Parking hududi chegarasini belgilash va uni foydalanishga topshirish muddatini tasdiqlash to‘g‘risidagi Toshkent shahar hokimi qarorlari qabul qilinadi.

**6.** Parking hududi chegarasini belgilash va uni foydalanishga topshirish muddatini tasdiqlash to‘g‘risidagi Toshkent shahar hokimi qarori qabul qilinganidan so‘ng Yer egasi ushbu yer uchastkasida joylashgan mulkiy majmuaga bo‘lgan ijara huquqini qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibga muvofiq elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarilishini ta‘minlaydi.

**7.** Elektron onlayn-auksion savdolari natijalari asosida Yer egasi va auksion g‘olibi o‘rtasida mulkiy majmuaga bo‘lgan ijara shartnomasi Parking tashkil etish loyihasini amalga oshirish shartlari belgilangan holda imzolanadi.

### **3-bob. Parking tashkil etishning asosiy shartlari**

**8.** Foydalanuvchi Toshkent shahar hokimligi tomonidan tasdiqlanadigan Parkingdan foydalanish qoidalariga rioya qilishi va to‘lovni o‘rnatilgan tartibda o‘z vaqtida amalga oshirishi shart.

**9.** Parking cheklanmagan shaxslar tomonidan foydalanishi uchun mo‘ljallangan umumiy foydalanishdagi Parking joylaridir.

**10.** Parking hududi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Yo‘l harakati qoidalarida nazarda tutilgan tegishli yo‘l belgilari va chiziqlari bilan belgilangan avtomobil yo‘li, ko‘chaning butun qismini o‘z ichiga oladi.

**11.** Parking transport vositalarini saqlash uchun mo‘ljallanmagan.

Parkingda uchinchi shaxslar tomonidan transport vositalarining olib qochilishi va shikastlanishi xavfi transport vositalari egalarining o‘z zimmlarida qoladi.

**12.** Parkingdan foydalanganlik uchun to'lov u qonunchilik hujjatlari va mazkur Tartibga muvofiq ishga tushirilgan kundan boshlab amalga oshiriladi, bundan quyidagi bepul joylashtirishlar mustasno:

favqulodda vaziyatlar va maxsus xizmatlar faoliyatini amalga oshirish uchun foydalaniladigan jigarrang, qizil yoki ko'k-qizil miltillovchi chiroq va maxsus ovozli signallar bilan jihozlangan transport vositalari;

old va orqa oynalarida "7.17" yo'l belgisi tasviri tushirilgan I yoki II guruh nogironligi bo'lgan nogironlarning transport vositalari (jumladan, nogironlar uchun mo'ljallangan maxsus transport vositalari);

II Jahon urushi qatnashchisining transport vositasi;

davlat ro'yxatidan o'tkazilmaydigan ikki g'ildirakli transport vositalari.

**13.** Parkingda, shu jumladan savdo korxonalari, xizmat ko'rsatish, tibbiyot, sport va madaniy-ko'ngilochar muassasalar yonidan kamida 5 foiz joy (lekin bir dona joydan kam bo'lmagan) imtiyozli ruxsatnomaga ega bo'lgan shaxslar tomonidan boshqariladigan transport vositalarini bepul joylashtirish uchun ajratiladi.

**14.** To'lov Texnik operatorga "Pullik to'xtash joylari" AAT doirasida joriy qilingan billing tizimi hisoblagichi ma'lumotlari asosida naqdsiz usulda yoki naqd pulda (texnik moslamasida ko'zda tutilgan) amalga oshiriladi.

Texnik operator mablag'larni bir qismini ijara shartnomasi bilan belgilangan miqdorda Toshkent shahar Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi huzuridagi avtomobil yo'llarini rivojlantirish hududiy maqsadli jamg'armasiga o'tkazadi.

**15.** Texnik operatorga quyidagi funktsiya yuklangan:

"Pullik to'xtash joylari" AAT operatori, Ichki ishlar vazirligining Yo'l harakati xavfsizligi xizmati va Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi bilan kelishilgan holda Parkinglar hududlari chegaralarida yo'l harakatini tashkil qilish loyihalarini ishlab chiqish;

o'rnatilgan tartibda vakolatli davlat organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlikda va kelishilgan holda Parkinglar loyiha hujjatlarini ishlab chiqish hamda ularni o'rnatish, foydalanishga topshirish, ishga tushirish, muhandislik tarmoqlari va tashqi axborot tizimlariga ulash va uskunalari modernizatsiya qilish ishlarini bajarish;

Parkinglarga o'rnatiladigan uskunalar tarkibini "Pullik to'xtash joylari" AAT operatori bilan oldindan kelishish;

Toshkent shahar hokimligi tomonidan tasdiqlangan Reja-jadvallarga muvofiq Parkinglarni foydalanishga topshirish tadbirlarini amalga oshirishda ishtirok etish;

o‘z yurituvidagi Parkinglarni o‘rnatilgan tartibda saqlash, ulardan foydalanish va ulardagi obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish;

cheklanmagan miqdordagi shaxslarga transport vositalarini Parkingga joylashtirish xizmatlarini ko‘rsatish;

foydalanuvchilarning Parkingdan foydalanish qoidalariga rioya etishini nazorat qilish;

jihozlangan Parkinglarda imtiyozli ruxsatnomalar olishga arizalarni qabul qilish, ruxsatnomalarni rasmiylashtirish uchun taqdim qilingan hujjatlarni tekshirish va ma‘lumotlarni “Pullik to‘xtash joylari” AAT operatoriga topshirish;

Parkingga joylashtirilgan transport vositalari davlat raqam belgisini foto va video qayd etish ma‘lumotlarini yig‘ish, qayta ishlash va tegishliligi bo‘yicha topshirishni ta‘minlash;

to‘lov sifatida kelib tushgan naqd pul mablag‘lari inkassatsiyasini (bankka topshirilishini) va bu haqidagi ma‘lumotni “Pullik to‘xtash joylari” AAT operatoriga taqdim etishni ta‘minlash;

Parkingga transport vositalarini joylashtirish to‘g‘risidagi batafsil axborotni to‘xtab turish vaqti boshlanish va tugashi vaqtlari hamda joylashtirilgan transport vositasining davlat raqami belgisi to‘g‘risidagi axborotni inobatga olgan holda avtomatlashtirilgan tarzda “Pullik to‘xtash joylari” AAT operatoriga taqdim etilishini ta‘minlash;

aholini Parkinglarni tashkil etishning maqsad va vazifalari haqida xabardor qilinishini ta‘minlash;

foydalanuvchilarda Parkinglar tashkil qilinishiga nisbatan ijobiy munosabat shakllanishiga ko‘maklashish;

Parkingda undan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi ma‘lumot joylashtirilishini ta‘minlash (axborot joylashtirilgan vositalar “Pullik to‘xtash joylari” AAT operatori bilan oldindan kelishilgan bo‘lishi va Toshkent shahri dizayn-kodiga muvofiq bo‘lishi kerak);

qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirish.

**16.** Parkingda o‘rnatilgan yo‘l harakati boshqaruvining barcha texnik vositalari, undan foydalanish uchun mo‘ljallangan boshqa statsionar yoki mobil uskunalari, shu jumladan to‘lov moslamalari Parkingning bir qismidir.

**17. Parkingda quyidagilar taqiqlanadi:**

joylarni zaxiralash va avtoulovlarni to‘xtash joylarida joylashtirishga boshqa to‘siqlarni yaratish;

boshqa turdagi transport vositasini, agar bu tegishli yo‘l belgilari va (yoki) belgilarda nazarda tutilgan bo‘lsa, ma’lum turdagi transport vositalari uchun mo‘ljallangan to‘xtash joyiga joylashtirish;

transport vositasini Parking chegaralarini buzgan holda joylashtirish;

transport vositasi davlat raqam belgisini ko‘rish imkoniyatini cheklaydigan, ularni anglashga to‘sqinlik qiladigan, nostandart yoki davlat standarti talablarini buzgan holda o‘rnatilgan holda yoki umuman davlat raqami belgisisiz qoldirish.

**4-bob. Yakunlovchi qoidalar**

**18.** Mazkur Tartib talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar hisoblanadi.

Toshkent shahar hokimining  
2024-yil 16-oktabrdagi  
731-14-0-Q/24-son qaroriga  
2-ilova

**Toshkent shahrida transport vositalarining  
pulli to'xtab turish joylaridan foydalanganlik uchun to'lovlar  
MIQDORLARI**

<b>Tarif zonasi nomi</b>	<b>Tarif zonasi chegarasi</b>	<b>Yigim miqdori 1 (bir) soat, so'm</b>
1-tarif zonasi	Zonalar chegaralari Toshkent shahar hokimining 2023-yil 3-martdagi 159-14-Q/23-son qarori bilan belgilangan.	12 000,00
2-tarif zonasi		10 000,00
3-tarif zonasi		8 000,00
4-tarif zonasi		6 000,00
5-tarif zonasi		5 000,00